



ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУЗ

АСТА NUUZ

МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**ЖУРНАЛ
1997
ЙИЛДАН
ЧИҚА
БОШЛАГАН**

**2022
1/6**

**Ижтимоий-
гуманитар
фанлар
туркуми**

Бош муҳаррир:

И.У.МАЖИДОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Р.Х.ШИРИНОВА – ф.ф.д., профессор

Таҳрир ҳайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Х. – т.ф.д., проф.

Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.

Ганиева М.Х. – соц.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Туйчиев Б.Т. – ф.ф.д., проф.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Тўхтаев Х.П. – ф.ф.н., доц.

Болтабоев Х. – фил.ф.д., проф.

Раҳмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Жабборов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Сиддикова И.А. – фил.ф.д., проф.

Ширинава Р.Х. – фил.ф.д., проф.

Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.

Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.

Пардаев З.А. – фил.ф.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2022

МУНДАРИЖА

Тарих

Abduzohirov R. Migratsion jarayonlarga oid qarashlar va yondashuvlarga doir ayrim mulohazalar	4
Абдулхай Г. Description of the socio-economical reforms carried out in turkistan asr in the periodical literatures	7
Алманов Қ. XIX аср охири – XX аср бошларида Самарканд вилояти Жиззах уездининг демографик манзараси ..	11
Боймирзаев С. Ўзбекистон тарихи давлат музейида археология фондининг шаклланиши жараёнлари (1876-1943 йиллар).....	15
Қобулов Э. Бухоро амирлиги маъмурий-бошқарув тизимида унвон ва мансаблар.....	19
Маматов Ш., Алманов Қ. Жиззах воҳаси аҳолисининг XIX аср охири – XX аср бошларида этник таркибига доир ёзма манбалар.....	23
Топилдиев О. Ўзбекистон республикасида ёшлар билан ишлашнинг янгича тизими.....	27
Хатамова Р. Ўзбекистоннинг биринчи ирригатори – Максудхўжаев Сайфиддин	30

Фалсафа. Педагогика. Психология. Методика. Социология. Сиёсий фанлар

Абдирахмонов А. Бакалавр математикларнинг касбий тайёргарликларини шакллантиришнинг методологик асослари.....	33
Абдуллаева М. Ярим ўтказгич материаллардан ишлаб чиқарилган микропроцессорли релеларни ўқитишнинг янги усуллари.....	37
Abulov M. Mulohaza va predikat tushunchalari haqida.....	40
Авилова Х. Ўқиш кўникмасини ривожлантиришда аслиятдаги материалларнинг аҳамияти	44
Aliyev I., Razzaqova M. Kurash bilan shug'ullanuvchi sportchilarda ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarini rejalashtirish uslublari	48
Алимов С. Ўзбекистонда миграция феноменининг этносферага таъсири муаммолари	51
Алимова Н. Замоनावий ўзбек санъатида аёл тинчлигининг инъикоси ва унинг эстетик хусусиятлари	54
Аллаяров Т. Технократик назариялар ва уларнинг моҳияти.....	58
Ahmedova M. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda masala va mashq yechish ko'nikmalarini tarkib toptirish yo'llari ..	61
Ahmedova M. Modul tizimida mustaqil o'qitishning filologik ta'lim imkoniyati.....	63
Ahadov M., Mardonova Z. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanidan laboratoriya ishlarini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	67
Азамхонов Б., Бурхонова М., Нематова С. Талабаларга дастурлаш асосларини ўқитишда “case study” методини қўллаш	71
Байджанова И. Оилавий тарбияда болаларни ота-оналар томонидан маълум фазилатлар ва кўникмаларни шакллантириш омиллари	74
Бакиев З., Накибуллаева Ш. Спорт курашида мусобақа ва машғулот фаолиятини бошқариш асослари.....	77
Бозорова И. Формирование структурно-функциональной модели электронно-образовательных ресурсов	81
Бурханов Х. Рақамли жамиятда интернетнинг жамоатчилик фикрига таъсири	85
Jamolova S., Usmonova D. Kompleks o'zgaruvchilarning chiziqli ishlab chiqarish funktsiyalari.....	89
Жўраева Д. Бошлангич синф ўқувчиларида мумтоз адабиётни ўқитиш методлари хусусида	91
Захидов Ш., Туратоева С. Олий таълим соҳасида таълим сифатини оширишнинг математик-статистик усуллари.....	94
Ибрагимов Б. Анализ содержания курсов повышения квалификации специалистов по спортивной борьбе	98
Ибрагимова Н. Философия женской правды.....	102
Каримова Н., Элмуродова М. Аҳолини спортга жалб қилиш усуллари	106
Кодиров М., Вохидов Э., Саггоров А. Физика таълими соҳасидаги ислохатларнинг нагжадорлиги тўғрисида	109
Кушанова М. Психологические факторы подростковой агрессивности в семье	113
Qahramonova X. Imitatsiyalar taqsimotiga asoslangan axborotlarni modellashtirish	117
Мадаминова Д. Миграция муаммосини ҳал этиш борасидаги давлат сиёсати хусусиятлари: Ўзбекистон тажрибаси	120
Мадатов Р. Ривожланиш биологиясини кластер ёндашув асосида ўқитишнинг ўзига хос жиҳатлари	124
Маматқулова Г. Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя тизимининг яратилиши.....	127
Миркомиллов А. Инновационные методы преподавания права	131
Муродов К., Каримов У. Тренажерлар ва машқлардан фойдаланиш асосида эркин курашчиларнинг куч чидамчилигини ривожлантириш технологияси	134
Мухаммадиев Х. Международное право об образование	138
Набиева Н. Проблемы идеологии в международных отношениях	141
Нортожиев А. Техника олий таълим муассасаларида физикадан амалий машғулотларни лойиҳалаш методи орқали ўтказиш усули	144
Орлова Т. Применение ситуационных задач и задач на соответствие на занятиях по курсу астрономии для студентов педагогических вузов	147
Pirniyazova Sh. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar qiziqishini oshirishning takomillashgan lingvometodik asoslari	150
Пулатов Л., Солиев Ф. Совершенствование технико-тактической подготовки таэквондистов на основе анализа соревновательной деятельности	153
Ражабов Х. Ахборот маконида миллий манфаатларни ҳимоя қилишнинг жаҳон тажрибаси	156

Раззакова Н. Жамиятни модернизация қилиш шароитида оилавий муносабатларнинг ўзгариш динамикаси	160
Раҳматов Э. Алоуддин Аттор Ҳазрат Баҳоуддиннинг айрим маънавий сифатлари ҳақида (“Рисолаи Қудсия” асаридаги нақллар мисолида)	165
Рузметов Р., Каримберганов Ф. Методика восстановления организма молодых футболистов в период подготовки	168
Сайдалиев И. Бўлажак муҳандисларни тайёрлашда саноат корхоналарининг ўрни	172
Sodiqov A., Bazarboev J., Sodiqova S. O'yin ampluasi bo'lgan vaterpolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini aniqlash va takomilashtirish	176
Sultonov R. Barkamol shaxsni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni jismoniy tarbiyalashning ahamiyati	179
Taniberdiev A. O'quv jarayonida korporativ tarmoq texnologiyalariga asoslangan axborot-metodik ta'minotdan foydalanish	182
Toshkuvatova R. The culture of family life in the philosophical views of Abu Ali ibn Sina	186
Toshtemirov D. Raqamli texnologiyalar asosida elektron ta'lim resurslari yaratish	189
Turanova I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini Pirls xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash	193
Турғунўлатов Д. Она тили ва адабиёт дарсларини интерфаол методлар орқали ташкил этиш самарадорлиги ..	196
Turi'mbetova Z. Hikoya qilish mashqlari orqali o'quvchilarning qoraqalpochcha nutqini o'stirish metodikasi (ta'lim boshqa tillardagi boshlang'ich sinflar misolida)	199
Turmanov S. Experiences on local self-government bodies in countries around the world	202
Ўлмаҳсўжаев З. Ижтимоий тармоқларнинг шахс сиёсий дунёкараши шаклланишига таъсири	206
Umarova I. Axborot xurujiga immunitetni shakllantirishga psixologik yondoshuvlar	210
Умурзаков У. Жамият барқарорлигини таъминлашда миллий ўзликни англаш ва унинг мафкуравий омиллари ..	214
Уразымбетов А. Формирование национальной идентичности студентов в обществе	218
Хатамова А. Имконияти чекланганларнинг иқтисодий, ижтимоий ҳуқуқларини амалга ошириш ва ҳимоя қилишнинг миллий модели	221
Хидиров М. Эзотеризм ва экзотеризмнинг умумий алоқадорлиги ва фарқи	225
Холбоева Н. Астрономия дарсларида фан янгиликлари ва компьютер дастурларидан фойдаланишнинг аҳамияти ..	228
Холмирзаев Х. Инсон салоҳиятини юксалтиришда фаолиятнинг роли	231
Khudaybergenova Z. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish	234
Хўжаев Д. Алишер Навоий бадий-фалсафий асарларида адолат тушунчаси тавсифи ва унинг ўзига хос мезонлари	237
Hazratqulov M., Sayfiddinova J. Kichik yoshdagi o'quvchilariga insho yozdirish orqali fikr bildirishga o'rgatish usullari	241
Хамзаев Б. Ёшлар маънавияти ва ҳулқ-аъвори ўзгаришида рақобатнинг ўрни	244
Шаропова З. Қишлоқ хўжалиги олий ўқув юртларида педагогика фанини ўқитиш самарадорлиги профессор-ўқитувчининг индивидуал маҳоратига боғлиқлиги	247

Филология

Авазов Н. Бехбудийнинг “Туркистон маданий мухторият лойиҳаси”да миллатнинг маънавий истилохатлари талқини	250
Алаутдинова К. Логистика соҳасига оид аббревиатураларнинг ўзига хос жиҳатлари	251
Almatayeva Sh. Abdulla Qahhor hikoyalarida lug'aviy sinonimlarning qo'llanilishi	252
Зулпуқаров К., Тавалдиева Г. О соотношении морфем и их алломорфов в родственных языках	253
Қурбонov О. Ўзбек медиа маконида телеконтентларга тифлошарҳ	257
Магурова А. Lexical means of creating an image a character in fiction	260
Мирзаахмедова М. Уильям Шекспирнинг “Отелло” трагедиясида маърифат талқини	263
Мусурманкулова Ш. Фраземаларни структур-грамматик жиҳатдан моделлаштириш	266
Norbaboyeva M. G'arb va sharq adabiyotida “yetim bola”larga munosabat	270
Раҳимова Г. Символика цветообозначений во французском, русском и узбекском языках	273
Rahmonova X. Xurshid Do'stmuhammadning badiiy obraz yaratish mahorati	277
Ruzibaeva N. The study of pragmatics as a linguistic science: problems of defintion and classification	280
Ro'ziboyeva P. Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarida ayollar obrazi talqini	283
Turmanov S. Experiences on local self-government bodies in countries around the world	286
Умурзаков Р. Бола образи назарий муаммо сифатида	290
Худайкулова Ш. Ҳаёт ва ўлим концептининг метафорик-аксиологик талқини	293
Ҳамраев Н. Телевидение – таълим-тарбия омил сифатида	296
Egamberdiyeva M. Main components of speech etiquette in intercultural communication	299
Eshonqulov H., Hamidov A. Alisher Navoiy g'azaliyotida muallif tahriri: shakl va mazmun mukammallashuvi	302
Юлдашева О. Категория «образ» в литературоведении и искусстве	306



УДК: 371:16.144.

Maloxat AXMEDOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti, p.f.n.
E-mail: malohataxmedova14@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori R.Niyozmetova taqrizi asosida

MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL O'QITISHNING FILOLOGIK TA'LIM IMKONIYATI

Аннотация

Filologik ta'limda talabalarning mustaqil oquv topshiriqlarini rivojlantirishda kredit-modul tizimiga o'tishning amaldagi holati va istiqbollari, oliy ta'lim muassasalarini ilg'or jahon tajribalari asosida kredit-modul tizimining tamoyillari, ta'lim oluvchi, ta'lim natijalarini tan olinishi. Ta'lim traektoriyasini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratilishi va akademik mobillik, baholarning to'planib borilishi, Professor-o'qituvchi, talabalarning fanga qiziqishi, hamda aniq belgilangan baholash tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: pragmatik, pedagogik xususiyatlar, oliy ta'lim, o'zbek tili o'qitish metodikasi, zamonaviy o'qitish talablari, o'quv topshiriqlari, nutqiy kompetensiya

ВОЗМОЖНОСТИ ФИЛОСОФСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация

Современное состояние и перспективы перехода на кредитно-модульную систему развития устной компетенции студентов высшего филологического образования, принципы кредитно-модульной системы вузов на основе передового зарубежного опыта, признания результатов обучения. Обоснована академическая мобильность, накопление оценок, заинтересованность преподавателей и студентов в науке, а также введение четко определенной системы оценивания.

Ключевые слова: прагматика, педагогические особенности, высшее образование, методика обучения узбекскому языку, современные требования к обучению, задания, разговорная компетенция.

PHILOSOPHICAL EDUCATION OPPORTUNITIES FOR INDEPENDENT TEACHING IN A MODULE SYSTEM

Annotation

The current state and prospects for the transition to a credit-modular system for the development of oral competence of students of higher philological education, the principles of a credit-modular system of universities based on advanced foreign experience, recognition of learning outcomes. Substantiated are academic mobility, the accumulation of grades, the interest of teachers and students in science, as well as the introduction of a well-defined assessment system.

Keywords: pragmatic, pedagogical features, higher education, methods of teaching Uzbek, modern teaching requirements, assignments, speaking competence

Kirish. Tilshunoslik fanlari ona tili o'qitish metodikasi didaktik, pragmatik yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish lingvodidaktik kompetensiyalarni rivojlanishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimiga o'tish jarayonlariga oid islohot kechmoqda. Bunga tayyor bo'lish uchun talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5847-sonli Farmoni ijrosini ta'minlashda kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, kiritish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish belgilab berildi[1].

Tadqiqot usullari. Suhbat, test, savol-javob, mustaqil o'quv topshiriqlar ustida ishlash, statistik metodlari asosida xalqaro tajribalarda til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar orqali (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) malakalari rivojlantiriladi. Ona tili o'qitishda mazkur

metodlardan biroq ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Chunki, talabalar tilning tashuvchilari sifatida muayyan nutqiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan holda OTM ga keladilar. Talabalarda ona tilidan (ular tilning tashuvchilari bo'lgani uchun) ba'zi ko'nikmalargina rivojlantiriladi, asosan ulardagi lingvodidaktik ko'nikmalarni takomillashtirish ayniqsa, o'zbek tili va adabiyotni o'qituvchilari ona tilida matn yoki suhbatni tinglab tushunadi, o'qiy oladi, gapira oladi va yoza oladi. Bunday vaziyatda ona tili o'qitish metodikasining didaktik vazifasi talabalarda eshitganlarni to'g'ri tushuna olish, adabiy tilde ravon mantiqan izchil gapira olish, matni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalarini takomillashtirish lozim[2]. Xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarda turgan OTMlar faoliyatini o'rganishda, zamon va jahon talablariga mos o'quv rejalarni ishlab chiqish oliy filologik ta'lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta'limning kredit-modul tizimining mohiyatini, ishlash mexanizmini oliy filologik ta'lim tizimidagi professor-o'qituvchilari va talabalarga yetkazishda universitetda kredit-modul tizimiga o'tish jarayoni monitoringini olib borish lozim. Xalqaro rivojlangan davlatlardatil o'qitish metodikasi keyingi yillarda bir qator yutuqlarni qo'lga kiritilganligi bilan izohlanadi. Buning natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohlarida muayyan

rivojlanishlar, islohotlar sodir bo'lmoqda. Zero, til muloqot vositasi sifatida barcha yo'nalishlarning taraqqiyotiga ta'sir qiladi, shuning uchun ham uni lingvodidaktik o'qitish masalasi doimo dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo til o'qitish metodikasiga andoza bo'layotgan ingliz tili ta'limi yutuqlaridan aksariyat mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda[4].

Tadqiqot natijalari. Filologik ta'lim traektoriyasini ma'lum bo'lishicha, xalqaro til o'qitish metodikasida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy masalalardan bo'lib, uni amalga oshirish o'quv topshiriqlari sifatiga ko'proq bog'liq bo'lmoqda. Xalqaro tajribadan ma'lumki modul-kredit tizimi o'zining bir qator afzalliklariga egaligi bilan ajralib turmoqda. Bunda talabaga ta'lim berish, uni mustaqil ishlashga yo'naltirish ekanligi zamonaviy talablarga nihoyatda mos keladi. Dunyoda oily ta'lim tizimi talabning mustaqil faoliyatiga asoslanganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarda tillarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda mustaqil o'quv topshiriqlarning mazmuniga, samaradorlik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim topshiriqlaridan savol, tezkor savol-javob, topshiriq yqa matn tahlillari va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro tajribada o'quv topshiriqlari o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Amalda foydalanilgan mustaqil, o'quv topshiriqlari avvaldan belgilangan ma'lum mezonlar asosida rivojlantiriladi. Olib borilayotgan tadqiqotlar mazmuni, natijasi oliy filologik ta'limda kredit-modul tizimiga o'tishning amaldagi holati va istiqbollari belgilab berilgan. Filologik oliy ta'lim tizimining ona tili o'qitish metodikasida o'quv topshiriqlaridan foydalanishning mavjud holati, xususan, oliy o'quv yurtlarida ona tili o'qitish metodikasi mashg'ulotlarida bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarini tayyorlashga mo'ljallangan o'quv adabiyotlarida savol, mashq va topshiriqlarning berilishi tahlil etish, shuningdek, o'quv topshiriqlarini didaktik va pragmatik jihatdan takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. M.B.Elkonin konsepsiyasiga ko'ra, bolani rivojlantirish jarayonida, avvalo, faoliyatning motivatsion tomonini, keyin esa texnik jarayonni o'zlashtirish amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, olimlar quyidagi omillarni ham ajratib ko'rsatadilar: ijtimoiy-siyosiy (tilning davlatga xosligi, maktabda o'qish majburiyati); kasbiy qiymat (kasbga o'qitish davlat tilida olib boriladi); ijtimoiy obro', jamoaviy mas'ullik; kommunikativ (ona tilida muloqot qilish zaruriyati); o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj, o'zini takomillashtirish istagi bilan bog'liq sabablar; utilitar (ma'lum hayotiy manfaatlariga erishish vositasi sifatida tilni bilish zarurati); xavotirlanish sabablari (sinfni orqaga tortmaslik, past baho olmaslik); ona tili va adabiyoti o'qituvchisiga hurmat motivi. Til tashuvchisining rivojlanish darajasiga ta'sir qiluvchi psixologik shartlar orasida lisoniy qobiliyat alohida ahamiyatga ega. Ko'pchilik zamonaviy olimlar "til tashuvchisi" tushunchasining tuzilish tarkibiga quyidagilarni kiritadilar: tilning lingvistik kompetensiyasi; nutqiy kompetensiyasi; fan kompetensiyasi; pragmatik kompetensiya; kommunikativ kompetensiyalarini izohini metodik mustaqil o'quv topshiriqlari asosida izohlaymiz. Doimiy intellektual rivojlanishda ruhiy jarayonlar (xotira - vizual va eshitish, fikrlash – mavhum va majoziy, kuzatish, tasavvur – reproduktiv va ijodiy); insonning ma'naviy boyligi – doimiy ma'naviy rivojlanish, axloqiy me'yorlar, avvalo, muloqot me'yoriga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Til an'alarining yig'ilib borishi. M.Neppning ta'kidlashicha,Odam ongida nutqi rivojlanishi bilan bir qatorda, ong ostida mumkin bo'lgan harakatlarning ichki rejasi tuziladi, muayyan vaziyatda amalga oshiriladigan harakatlar modellari yaratiladi. L.S.Vigotskiy, I.Ya.Zimnyaya, A.A.Leontev, S.L.Rubinshteynlarining psixologik tadqiqotlar tahlili til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati ona tilining

kommunikativ rivojlanish darajasiga bog'liqligi haqida gapirishga imkon beradi. "Ona tilining kommunikativ rivojlanishi" iborasi I.Ya.Zimnyayaning fikricha, quyidagilarni ta'minlaydigan murakkab ko'p qirrali hodisa sifatida ko'rib chiqilishi kerak: lug'at hajmi; nutq qoidalarni egallashning mohirlik darajasi; fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati, suhbatdoshning replikalarga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan og'zaki muloqot shakllarini bilish darajasi; ko'rsatkichi o'qish sur'ati bo'lgan o'qish texnologiyasi darajasi; yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish darajasi, kognitiv qiziqishlarini shakllantirish darajasi; umumiy dunyoqarash. Mazkur talablarni amalga oshirish uchun ona tili ta'limida pragmatik yondashuvga asoslangan o'quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish lozim. Buning uchun turli nutq vaziyatiga mos fikr ifodalash imkonini beruvchi, o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga xizmat qiluvchi kognitiv-pragmatik ta'limning afzalliklarini o'rganib chiqish kerak bo'ladi. Muloqot davomida odatda savollarga to'g'ri javob bergani uchun o'quvchilarga rag'bat yoki noto'g'ri javob bergan taqdirda ularga dashnom beriladi. O'zbek tili o'qitish metodikasi ta'limi talabalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgaralar fikrini tinglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda O'zbek tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi O'zbek tili metodikasi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Talaba uchun esa nutq OTMda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o'stirish o'zi nima? Agar talaba va uning tilidan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, bu nutqiy kompetensiya bo'lib, talabalarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash. Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida bog'lanishli nutq hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u talabalardan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sodida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinni qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish talabdan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. Talaba yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarda bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. O'zbek tili o'qitish metodikasi dars mashg'ulotlarida o'qituvchi shuni ham unutmash lozimki, ko'pincha talabalar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e'tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib

bormaydilar. Matnlarda ko'pincha mavzuga aloqasi bo'lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun O'zbek tili o'qitish metodikasi dars mashg'ulotlarida talabalar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillariga ega bo'lishi, materialning to'g'ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to'g'ri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim. O'zbek tili mashg'ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, talaba yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o'z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi. Talabalar mustaqil ravishda ijodiy fikrlashsalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalay olsalar, demak, O'zbek tili mashg'ulotlari samarali o'tgan bo'ladi. O'zbek tili mashg'ulotlarida talabalar nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri talabalarning uyda, ko'chada yoki guruhdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qirg'iz yoki boshqa (sheva) tilda so'zlashib, OTMda o'zbek tilida o'qishidir. Etnografik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jumhuriyatimiz hududida juda ko'p tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qozoqlar yashaydi. Ularning ko'pchiligi uyda tojik, qirg'iz va hokazo tilda so'zlashib, OTMda o'zbek tilida o'qishdi. Bu hol, shubhasiz, talabalarda tilning boy imkoniyatlaridan foydalangan holda o'z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatini chegaralaydi. Yuqorida sanab o'tilgan salbiy omillardan tashqari O'zbek tili o'qitish metodikasidan guruhdan va OTMdan tashqari olib boriladigan ishlarning mundarija va mazmun jihatdan bo'shligi, yagona nutq rejimiga hamisha ham rioya qilmaslik, dars mashg'ulotlarida talaba nutqi ustida yetarli ishlamasligi kabi talabalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga salbiy ta'sir qiladi. Tilni amalda o'zlashtirish O'zbek tilining barcha tovush birliklarini (tovush – bo'g'in – ibora - matn) tinglab ajratib olish va ularni to'g'ri talaffuz qilishni nazarda tutadi, shuning uchun talabalarda boshlang'ich bilimning yetarli bilimga ega bo'lishi tovushni talaffuz qilishni rivojlantirish borasidagi filologik metodik ishlar muntazam ravishda olib borilishi lozim. Ohang, tembr, pauza, urg'ulashning turli xillari tovush ifodaliligining muhim vositalari hisoblanadi. Talabaga intonatsiyadan to'g'ri foydalanishni, bildirilayotgan fikrning nafaqat mazmuniy ahamiyatini, balki emotsional xususiyatlarini ham bergan holda, uning intonatsion tasvirini qurishni o'rgatish juda muhim. Shu bilan parallel ravishda, vaziyatdan kelib chiqqan holda, talaffuz tempi, past-balandligini to'g'ri qo'llash, tovushlar, so'zlar, iboralar, gaplarni aniq talaffuz qilish (diksiya) qobiliyatini shakllantirish ishlari ham olib borilishi lozim. Talabalarda nutqning intonatsion jihatiga diqqat-e'tibor qaratishni tarbiyalash ekan, tajribaga ega tilshunos pedagoglarning nutqni tinglash qobiliyatini, tembr (har bir tovushning o'ziga xos bo'lgan sifati) va vazni his qilish, tovush kuchini sezishni rivojlantiradi, bu esa kelgusida musiqa tinglash qobiliyatini rivojlantirishga ham ta'sir ko'rsatadi.

Nutq intonatsiyasi, tovushning ifodaliligi ustidagi ishlar talabalarning bildirilayotgan fikrga nisbatan, matndan kelib chiqqan holda, ovozi balandlatib yoki pasaytirib, talaffuz qilinayotgan matnga mantiqiy va emotsional urg'u berish orqali o'z munosabatini bildirishni o'rganishlari uchun zarur. Suning uchun tilshunos pedagog tegishli topshiriqlardan ko'proq foydalanishi lozim. Aynan ushbu qobiliyatlar talabaga turlicha intonatsion ifodalashni talab qiluvchi turli xildagi ravon fikrlarni tuzish – hikoya qilish, tasvirlash, mulohaza yuritish uchun zarur bo'ladi. Tarbiyachi nutqning tovush jihatini rivojlantirar ekan, talabaga fikrlarning predmet, fikr bildirish mavzusi va tinglovchilardan kelib chiqqan holda kommunikatsiya maqsadlari va shartlariga mos kelishini hisobga olishni o'rgatishi lozim. Nutqning o'rinni bo'lishi, tezligi esa atrofda muhitga va fikrning maqsadiga mos kelishi lozim. Yaxshi, to'g'ri nutqning muhim ko'rsatkichi

bo'lib uning ravonligi hisoblanadi. Artikulyasion va intonatsion qobiliyatlarining uzviy bog'liqligi keng ma'nodagi tinglash va artikulyasion-talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ish jarayonida o'qituvchi talabalarga so'zning tovush tarkibini, so'zdagi urg'u o'rini tinglab, aniqlay olishga, qofiya va vazni his qilish tuyg'usini rivojlantirishga, aniq talaffuzni, so'zlar, iboralar, gaplarning turli intonatsion tavsiflarini bera olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan mashqlardan foydalanishi zarur. Bu murakkab nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish fonetik mashqlarni takrorlashni, ularni muntazam ravishda o'tkazishni talab qiladi. Har bir nutqiy vazifa ustidagi ishlarning ustuvor yo'nalishlarini ajratib ekanimiz, ularning barchasi o'zaro bog'liqlikda va yaqin o'zaro hamkorlikda ishtirok etishini ta'kidlash lozim. Ravon nutqni o'stirish va rivojlantirish asosida turli aloqa vositalaridan (so'zlar, gaplar, matn qismlari o'rtasida) foydalanish, turli toifadagi matnlar – tasvirlash, bayon qilish, mulohaza yuritish tuzilmasi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish qobiliyatini o'rgatish yotadi.

Muhokamasi. Dars mashg'ulotida talabani savol berishga undash mumkinmi, ko'p hollarda bunga e'tibor berilmaydi, imkoniyat yaratilmaydi. Talabalar tomonidan o'qituvchiga savol berilsa, aksariyat holatda rag'batlantirilmaydi. Ona tili mashg'ulotlarida va boshqa fanlarda ham o'quvchilar, asosan, javob beruvchidir[5]. Aslida talabaga ko'proq savol berishni o'rgatish lozim. Muloqot jarayonida javob savolning qanday berilganiga bog'liq bo'ladi. Fikrlash qobiliyati faqat savollarga javob berish qobiliyati bilan emas, balki ularni so'rash qobiliyati bilan ham belgilanadi. O'quvchilarda to'g'ri va mantiqli savol bera olish ko'nikmasini hosil qilish zarur. Bu kelajakda to'g'ri qaror qabul qiladigan fikrovchi kishilarni tarbiyalash uchun juda muhimdir. Bu borada g'arb pedagogikasidagi didaktik mo'tadilik, amaliylik va erishuvchanlik tamoyillariga tayanadi. Pragmatizm – ta'limni hayotga yaqinlashtirish, ta'lim maqsadlariga amalda erishish tarafdori bo'lgan falsafiy-pedagogik yo'nalishdir[5].

Xulosa va takliflar. Ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalovchi dars mashg'ulotining asosini fikrlashga yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlari tashkil qiladi. Bunday zamonaviy dars mashg'uloti javob berishi kerak bo'lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat: Talabalarning bilish faoliyati uchun tegishli bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olib matnga yoki mavzuga o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish. Savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo integratsion bog'lanishlarni e'tiborda tutish. Grammatika qoidalar emas, ona tilida matn bilan ishlashga o'tish, so'zning matndagi ma'no tovlanishlarini, talaffuzi va yozilishini, matn muallifi aslida nima demoqchiligini anglashga olib boruvchi savol va topshiriqlar tizimini yaratish, o'quvchining adabiyotga mehr qo'yishini ta'minlaydi, ona tilning bo'y-u bastini ko'radi. Grammatik nazariyalar – qoliqlardir, ona tili ularga sig'maydi. Demak biz tilning nutqiy imkoniyatlarini ko'rsatib berishimiz kerak, bu imkoniyatlar grammatika bilan o'lchanmaydi. Dars mashg'uloti asosan uch maqsadni amalga oshirishga qaratilgan: o'rgatish-ta'limiy maqsad, tarbiyalash-tarbiyaviy maqsad, rivojlantirish-dars mashg'ulotini mustahkamlash jarayoni. Filologik ta'limda, asosan, grammatik bilimlarni rivojlantirish nazarda tutiladi, grammatikasiz dars mashg'uloti bo'lmaydi, biroq me'yor darajasi tahlillarga qaratilgan bo'lishi kerak. Til o'rganishni murakkab jarayonga aylantirib qo'yganimiz, kasbiy malaklar alohida masala bo'lib qolayotganligi OTM o'qituvchisidan fanga oid tilshunosning bilim va ko'nikmasini, lingvistikaning metodik sohasini bilishni talab etadi. Eng yangi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, ta'lim jarayoni tezkor savol-javob asosida dars mashg'uloti mashg'uloti tashkil

qilish, faqatgina amaliy mashg'ulotlar jzarayonida amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Usmonov B.Sh, Habibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma T. "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
2. Usmonov S. Umumny tilshunoslik. Toshkent, 1972, 144- bet.
3. Djon Dyui. Obshchestvo i yego problemy John Dewey. The Public and its Problems. Denver,— Perevod s angliyskogo: I. I. Myurberg, A. B. Tolstov, Ye. N. Kosilova. — M., 2002.
4. Раупова Л.Р. Диалогик нутқнинг дискурсив талқини (полипредикатив бирликлар мисолида). Монография. Ўзбекистон фанлар академияси "Фан", 2011 йил.
5. Раупова Л.Р. Бадий ва санъат асарларида маданий нутқ орқали миллий ментал омилларнинг ифодаланиши. Монография. Тошкент: "Инновация-зиё", 2019-йил.